

ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI RAQAMLI HAMKORLIKNI YARATISH.

Muallif ism familiyasi:

Raxmonqulova Xuriyat Tojimatovna

Muallifning ish joyi: Andijon viloyati

Buloqboshi tuman 20- maktab

Muallifning elektron pochta:

raxmonqulovaxuriyat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi raqamli hamkorlik imkoniyatlari, shuningdek, ta'lim jarayonining interaktivligini oshirishga hizmat qiluvchi innovatsion usullar haqida so'z boradi. Biroq, raqamli hamkorlikni joriy etishda qator muommolar mavjud; texnik infratuzilmaning yetishmovchiligi, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, o'quvchilarning raqamli texnologiyalardan noto'g'ri foydalanishi va akademik samaradorlikni nazorat qilish qiyinligidir. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitidagi asosiy muommolar taxlil qilinib, ularni hal qilish bo'yicha amaliy yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, onlayn o'qitish, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, interaktiv texnologiyalar, ta'lim innovatsiyalari, raqamli savodxonlik, texnik infratuzilma.

Kirish.

Dunyo ta'lim tizimi jadal raqamlashtirilayotgan bir paytda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. An'anaviy dars jarayonidan farqli ravishda, bugungi kunda o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga bilim berib, ularning mustaqil ta'lim olishlarini qo'llab

quvvatlamoda . raqamli hamkorlikning rivojlanishi o`quv jarayonini yanada interaktiv, ochiq va samarali qiladi. Raqamli texnologiyalar ta`lim jarayoning ajralmas qismiga aylanib, o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi hamkorlikning yangi shakllari yaratilmoqda. Maqolaning maqsadi - zamonaviy ta`lim tizimida raqamli texnologiyalar orqali o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi hamkorlikni shakllantirishni afzalliklarini o`rganish va taxlil qilishdan iboratdir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta`lim jarayonini yangi darajaga olib chiqishga muhim ro`l o`ynaydi. Raqamli platformalar orqali va vositalar orqali o`qituvchilarga shaxsiylashtirilgan ta`limni taqdim etishlari mumkin. Shuningdek, o`qituvchilar uchun raqamli pedagogik ko`nikmalarini rivojlantirish va o`quvchilar bilan samarali muloqotda bo`lishning muhimligi ta`kidlanadi. Raqamli hamkorlikning ijtimoiy va psixologik ta`siri ham alohida e`tiborga olinadi, bu o`quvchilarning bilim olish jarayonidagi motivatsiyasini va ijtimoiy aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqola ta`lim sohasidagi raqamli o`zgarishlarning o`qitish samaradorligini oshirishdagi ro`lini ochib berishga qaratilgan.

Asosiy qism

Raqamli hamkorlik o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida turli texnologik vositalar orqali o`zaro axborot almashinuvi, bilim olish va ta`lim jarayonini rivojlantirishdir. Uning asosiy vazifalari : O`qituvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish, ta`lim sifati va natijadorligini oshirish , o`qituvchilarga samarali o`qitish vositalarini taqdim etish, o`quvchilar bilan tezkor aloqallarni o`rnatish va bilimlarni baholash. Raqamli ta`lim jarayonida bir qator muommolar ham mavjud bo`lib , ularni hal qilinishi ta`lim sifatini yanada oshiradi.

1. Muommo: Texnik infra tuzilmaning yetishmovchiligi. Ko`plab maktab va ta`lim muassalarida internet tezligini pastligi, zamonaviy kompyuterlarning yetishmasligi va o`quvchilarning shaxsiy qurilmaga ega emasligi raqamli hamkorlikni to`liq yo`lga qo`yilishiga to`squinlik qiladi.

Yechimlar : Hozirgi kunda bu muommoni hal qilish uchun ko`plab ijobiy harakatlar olib borilmoqda. Davlat va xususiy sektor hamkorligida ta`lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni ko`proq joriy qilish. Maktablar uchun subsidiya va grant dasturlarini

ishlab chiqish. Raqamli texnologiyalarni qo'llab quvvatlash uchun ta'lim fondlarini yaratish. Internet infratuzilmasini rivojlantirish orqali hamma uchun raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Muammo: O'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini yetarli bo'lmasligi.

Ba'zi o'qituvchilar zamonaviy raqamli platformalar va texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha yetarli tajribaga ega emas. Bu esa o'quvchilarga sifatli ta'lim berish jarayoniga ta'sir qiladi.

Yechimlar: O'qituvchilar uchun maxsus raqamli texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Raqamli texnologiyalar bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish uchun seminarlar vebinarlar o'tkazish. Zamonaviy texnologiyalar bo'yicha o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni osonlashtirish. Raqamli ta'lim bo'yicha motivatsion dasturlarni joriy etish kerakdir.

3. Muammo: O'quvchilarning raqamli vositalardan noto'g'ri foydalanish. Raqamli ta'lim imkoniyatlardan noto'g'ri foydalanish o'quvchilarning chalg'ishiga, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o'tkazishiga yoki noxush internet kontentlarga duch kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yechimlar: O'quvchilarga internet madaniyati va onlayn xavfsizlik bo'yicha ta'lim berish. Raqamli vositalardan foydalanish vaqtini cheklash va uni nazorat qilish tizimlarini joriy etish. Dars jarayonida foydali va samarali raqamli resurslarni ishlatish orqali chalg'ituvchi omillarni kamaytirish. Ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchilarning raqamli muhitda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'llanmalarga ega bo'lishi lozim.

4. Muammo: Akademik samaradorlikni nazorat qilish qiyinligi. Raqamli ta'limda o'quvchilarning bilim darajasini to'g'ri baxolash va ularning ishtirokini nazorat qilish qiyin bo'lishi mumkin. Bu esa akademik natijalarni ob'ektiv baxolashga to'sqinlik qiladi.

Yechimlar: Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan baxolash tizimlarini ko'proq joriy qilish (TURNITIN, AL baxolash tizimlari). Interaktiv test va viktorinalarni muntazam o'tkazish orqali o'quvchilar bilimni kuzatib boorish. O'quvchilarni faol ishtirokini

ragʻbatlantirish uchun interaktiv dars usullaridan foydalanishni. Ota-onalar va oʻqituvchilar oʻquvchilarning raqamli muhitda xavfsizligini taʼminlash boʻyicha qoʻllanmalar ishlab chiqish va uni xar bir oilaga yetib borishi tanishishini nazoratga olish zarur.

Raqamli hamkorlikni yaratish usullari bular onlayn platformalar jumladan Google Classroom, Mikrosoft Teams, Moodle kabi platformalar oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida muloqot qilish, topshiriqlar berish va baholash, oʻquv materiallarini almashish imkonini beradi. Bundan tashqari oʻyinlashtirilgan oʻquv dasturlari: Kahoot, Quizizz, Duolingo kabi dasturlar oʻquvchilarni faollashtiradi va ularni oʻrganishga ishtiyoq uygʻotadi. Raqamli hamkorlikning afzalliklari juda koʻp. U taʼlimning interaktivligi va qiziqarligini oshiradi. Oʻquvchilarning faolligi va mustaqilligi rivojlanadi. Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqot yaxshilanadi. Taʼlimning shaxsiylashtirilishi taʼminlanadi. Oʻquvchilarda hamkorlik koʻnikmalari rivojlanadi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali oʻqituvchi har bir oʻquvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan taʼlim muhitini yaratish mumkin. Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi raqamli hamkorlikning yaratishning transformatsion roli va innovatsion yondashuvlarini organadi. Maqolada raqamli ekosistemalarning taʼlim jarayoniga integratsiya orqali oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi munosabatlarning qayta shakllantirish, taʼlimning adaptive, kollaborativ va ijodiy qilish strategiyalari taxlil qilinadi. Shuningdek, raqamli hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur boʻlgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, texnologik instrumentlar va ekosistemalar yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi. (2022). Raqamli taʼlim platformalaridan foydalanish boʻyicha metodik qoʻllanma.
3. Anderson, T., & Dron, J. (2019). Three Generations of Distance Education Pedagogy.
4. Siemens, G. (2021). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.

UNESCO. (2023). Digital Transformation and Education.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Raqamli ta'lim" konsepsiyasi.

7. Xalqaro tashkilotlar materiallari:

UNESCOning "Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" bo'yicha tavsiyalari.